

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

70220301 – Tarix magistratura mutaxassisligining

MALAKA TALABLARI

Toshkent-2024

277
2024.01.08

1

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil "01" 08 dagi 277-sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. Umumiy tavsifi.....	4
1.1. Qo'llanish sohasi	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	6
3. Ilmiy faoliyatga qo'yiladigan talablar	7
4. Fanlar katalogining tuzilishi	9
Bibliografik ma'lumotlar	10
Kelishuv varag'i.....	11

1. Umumiy tavsifi

70220301 – Tarix magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 70220301 – Tarix magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlari tavsifi

1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70220301 – Tarix – “Gumanitar fanlar” ta'lim sohasiga oid mutaxassislik bo'lib, Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida ilmiy-tadqiqot markazlarida, loyihalash institutlarida, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, turli mulkchilik shaklidagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida, davlat boshqaruvi organlarida, har xil shakldagi mulk, sanoat va biznes tashkilotlarida mutaxassislikka oid kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tekshirish institutlari hamda oliy o'quv yurtlarining ilmiy-tadqiqot bo'limlari;

ilmiy, texnikaviy va texnologik masalalar bilan bog'liq akademik, ilmiy tadqiqot muassasa va tashkilotlari;

qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim tizimi muassasalari;

davlat va mahalliy boshqaruv organlari;

turli mulkchilik shaklidagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalari;

davlat statistika qo'mitasi bo'limlari;

fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limlari;

arxiv muassasalari;

milliy madaniy markazlar.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari

ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyat;

tashkiliy-boshqaruv faoliyat;

turli xizmatlar ko'rsatish kabilarni o'z ichiga oladi.

1.2.4. Kasbiy vazifalari

70220301 – Tarix mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashv etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'qitish metodikasini egallash;

oliy va umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi;

o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi;

mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va boshqa sohalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatiga ega bo'lishi;

elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o'qitish uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim;

uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va boshqa o'quv-meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

loyihalarni boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish, bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish, loyiha komandasini boshqarish;

ijrochilar va ilmiy tadqiqot jamoasi ishini tashkil qilish va boshqarish;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

qabul qilinayotgan qarorlarni miqdoriy va sifat bo'yicha baholash, ilmiy yutuqlarni qo'llay olish;

e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish;

kasbiy etika kodeksiga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Turli xizmat ko'rsatish faoliyatida:

mutaxassislikka mos maslahatchilik xizmati;

magistr ixtisosligiga mos mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert guruhlarida ishtirokchi sifatida qatnashish;

pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;
mutaxassisliklari bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;

mutaxassisliklari doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ITilarda tayanch doktorant va mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirishga;

kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olish uchun tayyorlanadilar.

foydalanishda tarixiylik, aniqlik, xolislik, ishonchlilik tamoyillarini qo'llay bilishi;

bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadbqiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

ilmiy loyihalarning samaradorligini baholash hamda ularni sharhlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

ilmiy tadqiqot sohasi bo'yicha aniq tarixiy konseptual yondashuvga ega bo'lish, strategik rejalarni ishlab chiqish, tarixshunoslik va manbashunoslik sohasida olib borilayotgan ilmiy muammolarning nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tadbqiq etishni bilish;

loyihalarning tarixiy-iqtisodiy hamda siyosiy samaradorligini baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

ijtimoiy-tarixiy vaziyatlarga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakasiga ega bo'lish;

tarixiy tadqiqot usullarini olib borishda kerakli meyoriy-huquqiy hujjatlarni to'g'ri qo'llay bilish va amaliy natijaga erishish.

3. Ilmiy faoliyatga qo'yiladigan talablar.

Ilmiy faoliyat ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o'zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida atrof-muhit muhofazasi sohasidagi ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilishga bo'lgan talablar:

mustaqil tadqiqotchilik faolyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi;

axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, ilmiy maqolalar tayyorlashga doir bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish;

talabalarga soha bo'yicha fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo'llay bilish, ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanish ko'nikmasini singdirishi lozim.

Ilmiy pedagogik ishlar:

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirish;

o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etish uquvi va ko'nikmalarini hosil qilishi lozim.

Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)

Magistrlar tayyorlashda ilmiy amaliyot 4-semestrda o'tkaziladi. Bunda soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish; fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish; sohaga tegishli amaliy, kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish; kasbga samarali moslashuv imkoniyatlarini ta'minlashi lozim. Bunda tajriba ilmiy amaliyotga yuborilgan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarilishi ko'zda tutiladi.

5. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	1080	36	
1.01	ILTM1106	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	180	6	1
1.02	MFOM1106	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	180	6	1
1.03	TRM1106	Tarixiy rekonstruksiya masalalari	180	6	1
1.04	PSD1106	Paleoekologiya va sivilizatsiya dinamikasi	180	6	1
1.05	UESM1206	O'zbekistonda yer-suv munosabatlari (qadimgi davrdan–hozirgi kungacha)	180	6	2
1.06	GMHM1206	Globalashuv sharoitida O'zbekiston va jahon mamlakatlari hamkorligi	180	6	2
2.00		Tanlov fanlar	720	24	2,3
		Jami	1800	60	
	Kvalifikatsiya	Tarixchi, pedagog-tadqiqotchi			
3.00		Ilmiy faoliyat	1800	60	
3.01		Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti	600	20	1,2,3,4
3.02		Ilmiy tadqiqot ishi, magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish	1200	40	1,2,3,4
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55


OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:


Ilmiy-tadqiqot, yer-suv munosabatlari, yer egaligi turlari, sug'orish tizimi, suv inshootlari, mustamlaka boshqaruvi, ko'chirish siyosati, milliy davlatchilik, jadidlar, taraqqiyparvar, ma'rifat, milliy matbuot, Turkiston muxtoriyati, totalitarizm, qatog'onlik siyosati, ma'muriy-buyruqbozlik, ekspansiya, repressiya, funksiya, "paxta ishi", millatlararo munosabatlar, tolerantlik, milliy totuvlik, mentalitet, metodika, tarixiylik, ilmiylik, prinsip, kategoriya, obyektivlik tamoyili, tarixiylik, aniqlilik, xolislik prinsiplari, ilmiy qonunbuzarlik, ilmiy ishlab chiqarish, ilmiy loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, axborot-kommunikativ tizimlar axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, zamonaviy xorijiy ilg'or tajribalar, ilmiy tadqiqot markazlari, tadqiqot usullarini tashkil qilish, samarali foydalanish, virtual va elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari
ISHLAB CHIQILGAN:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti


Rektor  I. Madjidov

2024-yil « ____ » _____



O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbekiston tarixi davlat

muzeyi

Direktor  J. Ismoilova

2024-yil « ____ » _____

M.O'.

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  M. Boltabayev

2024

M.O'.




Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat
universiteti


Rektor  A. Reymov

2024-yil « ____ » _____

M.O'.



Urganch davlat universiteti



Rektor  B. Abdullayev

» _____

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
70220301 – Tarix magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari va o'quv
rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar
iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ” 2024-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi direktor J.Ismoilova, Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti rektori A. Reymov, Urganch davlat universiteti rektori B.Abdullayev, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti rektori I.Madjidov birgalikda O'zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70220301 – Tarix magistratura mutaxassisligining malaka talablari hamda o'quv rejasini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son Qarori hamda O'zR OTFIVning 2023-yil 9-iyundagi “Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida”gi 259-sonli hamda O'zR OTFIVning 2024-yil 20-maydagi “O'z DS 3557:2021 “Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” O'zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalari ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

O'zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori

J.Ismoilova

Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti rektori

A.Reymov

Urganch davlat universiteti rektori

B.Abdullayev

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti rektori

I.Madjidov